



## GENERALITY IN ENGLISH AND UZBEK FOLKLORE

**Navro'zova Sevinch**

Sharof Rashidov Samarkand State University, Urgut Branch, Faculty of Pedagogy and Language Teaching, Department of Foreign Language and Literature, Group 109 student

Email: [abdukarimovadurdona2004@gmail.com](mailto:abdukarimovadurdona2004@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11092860>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2024

Online: 30<sup>th</sup> April 2024

### KEYWORDS

Folklore, fairy tales, English, Uzbek, legend, narration, folk, historical song, anecdote.

### ABSTRACT

*This article provides feedback on Uzbek and English folklore, as well as folklore. The importance of the linguistic-cultural approach in the analysis of language is also emphasized, and the generality of these ideological and artistic principles in the genres of English and Uzbek folklore, the commonalities of genres and the principles of historical similarity of English and Uzbek folklore genres. The problems of language and culture, the interdependence, connection and interaction of cultures are cultural phenomena and have a special scientific significance in linguistics.*

## INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA UMUMIYLIK

**Navro'zova Sevinch**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 109-guruh talabasi

Email: [abdukarimovadurdona2004@gmail.com](mailto:abdukarimovadurdona2004@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11092860>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2024

Online: 30<sup>th</sup> April 2024

### KEYWORDS

Folklorshunoslik, ertak, ingliz, o'zbek xalq ijodi, terminlar, epos, afsona, naql, rivoyat, tarixiy qo'shiq, latifa.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodi hamda ushbu terminga xos ravishda folklorshunoslik haqida fikr-mulohazalar berilgan. Shuningdek, o'zbek va ingliz folklori janrlaridagi g'oyaviy-badiiy prinsiplar umumiyligi, janrlarning o'zaro munosabatlariga oid o'xshashliklari, hamda ingliz va o'zbek folklori janrlarining tarixiy mushtaraklik prinsiplari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Til va madaniyat, madaniyatning o'zaro bog'liqligi, aloqasi hamda o'zaro ta'siri muammolari madaniy hodisa va u tilshunoslikda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.*

Folklorshunoslik – xalqaro terminlardan biri hisoblanadi. O'zbek tilidagi folklorshunoslik atamasi, uning tur va xususiyatlarini ingliz tilida ham kuzatish mumkin. Ular bilan tanishar ekanmiz, albatta, ingliz tilidagi folklore atamasini ham o'qib, o'rganib tahlil qilish lozim.

Folklor (inglizchadan folk "xalq", lore "bilim", "donolik") xalq og'zaki ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi William Thoms olib kirgan. 1880-1990-yillarda



“folklor” termini ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo‘llana boshlagan. O‘zbekistonda dastlab “og‘zaki adabiyot”, “og‘iz adabiyoti” atamalari qo‘llangan. Folklor termini 30-yillarning o‘rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning “O‘zbek folklori” xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o‘zbek folklorshunosligida mustahkam o‘rin oldi.

Folklorshunoslik xalq ijodi haqidagi fan, turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq san‘atini (xalq og‘zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri kabi) o‘rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san‘atshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to‘g‘risidagi dastlabki fikrlari afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to‘g‘risidagi dastlabki fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo‘yicha dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko‘zga tashlanadi. (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. 18-asr va 19-asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og‘zaki ijodi materiallarini to‘plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda uni chinakamiga o‘rganish boshlandi. Ntjada esa Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo‘nalishlar, maktablar vujudga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo‘lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog‘laydi.

Professor B.Sarimsoqovning fikricha, adabiyotdagi uch turni folklore asarlariga ham qo‘llash mumkin, lekin bu uch adabiy tur doirasiga sig‘maydigan, faqat folklorga xos maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg‘ishlar alohida tur sifatida ajratib o‘rganilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, olim o‘zbek folklori janrlari tarkibini quyidagi turlarga ajratadi:

1. Epos: afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, tarixiy qo‘shiq, latifa, lof;
2. Lirika: sevgi-muhabbat qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari, laparlar;
3. Drama: og‘zaki drama, kulgili hikoya, qo‘g‘irchoqbozlik, askiya;
4. Maxsus tur: oddiy o‘tirish olqishlari, so‘kish, qarg‘ish, topishmoq va boshqa xildagi iboralar.

Ertak bu parilar, goblinlar, knyazlar va malika kabi folklor xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ixcham hikoyadir. Bir ertakning bir nechta, hatto 10 dan ortiq versiyalari mavjud. Bugungi kunda turli mualliflar hali ham ertaklarning yangi versiyalarini ixtiro qilish va yozishni yoqtirishadi (Hallet & Karasek, 2009; Tiberghien 2007).

Biz ingliz va o‘zbek folklorining janrlar tizimini o‘rganar ekanmiz, bu tizim, birinchidan, ulardagi g‘oyaviy-badiiy prinstiplar umumiyliklarga; ikkinchidan, ularning tarixan taraqqiy etgan o‘zaro munosabatlariga; uchinchidan, janrlar tarixiy taqdiridagi umumiylikka bog‘liq holda vujudga kelishini tahlil qilib, tahlilda quyidagi umumiy jihatlarni aniqladim:

- a) Ingliz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotidagi barcha janrlar g‘oyaviy mohiyatiga ko‘ra o‘zaro o‘xshash bo‘lib, ularning hammasida ham xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, shodlik va



kulftlari ifodalangan; har ikki millat folklori xalq ruhiyatini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan;

b) Folklor janrlar orasidagi o'zaro aloqa ularning voqelikni aks ettirishdagi o'xshashligida ham ko'rinadi. Har bir janr o'z xususiyatidan kelib chiqib hayotning ma'lum bir tomonini ifodalaydi. Masalan, ma'lum bir guruhdagi janrlar xalq tarixini aks ettiradi: doston, tarixiy qo'shiq, rivoyat, afsona kabilar. Lirik qo'shiqlar shaxsiy insoniy kechinmalarni aks ettirsa, maqol va naqlar xalqning axloqiy qarashlari va hayot tajribalaridan olgan saboqlarini ifoda etadi. Bu xususiyatlarni ham har ikki millat og'zaki ijodi namunalarida ham ko'rish mumkin;

c) Folklor janrlari uchun xalq estetik prinsiplari ham umumiydir: soddalik, qisqalik, ixchamlik, syujetlilik, tabiatni poetiklashtirish, qahramonlar axloqiy bahosining aniqligi (ijobiy va salbiy) ni ta'minlangan.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va tadqiq qilish ishlari asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlab jonlandi.

Eposshunoslik tarixida birinchi marta Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshidan "Alpomish" dostonining bir qismini yozib oldi. Olim o'z kuzatishlarining natijasini umumlashtirib maqola yozdi va unda o'zbek eposining yuksak namunolari: "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf va Ahmad" kabi dostonlar haqida ilk bor fikr yuritildi. Shu narsa diqqatga sazovorki, tadqiqotchi "Alpomish" dostonini jahon adabiyotida muhim o'rin tutgan mashhur "Odisseya", "Iliada" kabi eposlarga qiyoslab o'rganadi.

Ingliz tili misollarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy nutqning barcha farqlari ingliz va rus madaniyatlari, bu sohadagi farqlardan ko'ra o'xshashlik bilan tafsiflanadi.

**Xulosa:** Ingliz va o'zbek folklori orasidagi o'xshashlik va mushtarakliklar insoniyat tarixida hamma millat madaniyati baravar rivojlana boshlaganini ko'rsatish bilan bir qatorda jahon tamaddunida dunyo xalqlari folklori bir-birini to'ldirib, kengaytirib borishining yaqqol namunasidir. Janrlar mavzusi, g'oyasi va tuzilishi orasidagi bir xillilik bu fikrimizning yaqqol tasdig'idir.

Ingliz xalq og'zaki ijodi millat o'ziga bo'ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlangan. Ingliz millatiga mansub og'zaki ijod namunalarida aynan shuning uchun ham dunyoning turli xalqlarining folklori namunalariga o'xshash jihatlarni ko'plab ko'rish, uchratish mumkin.

Shuni aytish joizki, ingliz xalq og'zaki ijodi millatni o'ziga bo'ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlangan. Ingliz millatiga mansub og'zaki ijod namunalarida aynan shuning uchun ham dunyodagi turli xalqlarning folklori namunalariga o'xshash jihatlarni ko'plab ko'rish, uchratish mumkin. Yoshlarni qiziqitira olish, tasavvurini rivojlantirish hamda ularni o'ziga jalb etish uchun folklorshunoslik namunalarida turli xil badiiy vositalardan foydalaniladi. Grchi barchamiz ham xalq og'zaki ijodini doimiy ravishda hayotimizga tadbiq etolmasakda, uning kichik-kichik ko'rinishlarini turmush tarzimizda albatta ko'ra olishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak, ular urf-odatlarimizda sezilarli darajada muhim ekanligini his etamiz. Ya'ni to'ylarda, milliy bayramlar nishonlanganda, farzand dunyoga kelganda yoki mehmondorchilik hollarida bir qator misollarning guvohi bo'lamiz. Bu kabi odatlar nafaqat o'zbek xalqining balki boshqa xalqlarning ham turmush tarzida yaqqol namoyon bo'lishi, shubhasiz. Shu o'rinda aytish joizki, xalq og'zaki ijodi millatning milliyligini ko'rsatibgina qolmay to millat yo'q bo'lib ketmaguncha u bilan har jabhada hamnafas bo'ladi.



## References:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan;
2. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" IV jild T Ma'naviyat, 2006, 20-bet;
3. Sarimsoqov B. "O'zbek folklorining janrlar sostavi. // O'zbek folklori ocherklari III tomlik, 1-tom.T"Fan", 1988.B. 64. 85;
4. Mirzayeva S. "O'zbek realistik adabiyotida folklore an'analari. Folklorshunoslikdan o'quv-uslubiy qo'llanma.-T"Istiqlol", 2005.-B 83.